

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2025 Vol. 1 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Yekaterina Shirinova

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Manzura Abjalova, Xurshida Kadirova, Shoiria Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Dilafuz Xidoyatova, Dilrabo Elover, Elyor Xonnazarov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov, Nasiba Jo'raqulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashrlik ishi, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda to'rt marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. “O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,

Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Мирвари Исмаилова

Научная концепция о происхождении тюрков в Передней Азии ...5

Nasiba Jo'raqulova

Xalq dostonlarida turkiy obraz tasviri14

Sohiba Gazibekova

Diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning poetik imkoniyatlari (Xayriddin Sulton asarlari misolida)25

Umida Abdullayeva

Badiiylik modusi - she'riyatdagi modifikatsion usul31

QIYOSIY TILSHUNOSLIK

Зульфия Ишкильдина, Луиза Самситова

Корневая морфема в русском и башкирском языках38

Xurshida Kadirova, Xankishi Məmmədov

"Gözəllik" komponentləri ilə paremioloji birliklərin iks-femik semantikasi49

Xurshida Kadirova, Odina Uralova

Turkiy va turk xalq maqollarining lingvistik tadqiqi59

Nargiza Aytniyazova

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi paremiyalarning lingvokulturologik aspekti75

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH

Dilora Bahronova

Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishda til va madaniyat integratsiyasi ...84

LINGVOKULTUROLOGIYA

Shakhzoda Khayrullaeva

A linguacultural analysis of emotions through metaphors (in english and uzbek: anger, fear, love, and pride)90

PSIXOLINGVISTIKA

Dildora Salimova

Psixolingvistikada nutqni idrok etish masalasi102

SOTSIOLINGVISTIKA

Gulbahor Iskandarova, Yekaterina Shirinova

Bolalarda gender identifikatsiyasining lisoniy jihatdan xoslanishi ...111

Lobar Rahimqulova

Ijtimoiy tarmoqlardagi konfliktli yozishmalarda yosh xususiyatini ifodalovchi lingvistik va paralingvistik birliklar119

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Gulshan Asilova, Fatma Açık

Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun matnlarni tanlash tamoyillari127

Турсуной Юсупова

Проблема подготовки обучающихся к текстообразительной деятельности путем выполнения грамматических заданий139

Мунира Шодмонова

Развитие критического мышления у студентов как педагогическая проблема150

Yekaterina Shirinova, Gulbahor Iskandarova

Til ta'limiga antroposentrik yondashuv masalasiga doir165

TURKIY VA TURK XALQ MAQOLLARINING LINGVISTIK TADQIQI

Xurshida Kadirova¹

Odina Uralova²

Annotatsiya

Tilning paremiologik fondi xalq tomonidan dunyoni bilishning ogʻzaki tajribasini ifodalaydi. Uni lingvistik tadqiq etish jarayonida milliy-mental xususiyati, grammatik va sintaktik tafovut va umumiyliklari namoyon boʻladi. Maqolada turkiy va turk maqollarining ayro xususiyatlari, oʻrganilish yondashuvlari tahlilga tortilgan. Maqola tahliliy, tavsifiy, tasnifiy metod asosida amalga oshirilgan. Maqollarning lingvistik tadqiqiga oid manbalar oʻrganilib, tadqiqot natijasida turkiy maqollar tilshunoslikda qiyosiy-chogʻishtirma aspektida, turk maqollari leksik, semantik, grammatik, sintaktik yondashuv asosida tadqiq etilishi xulosa qilingan.

Kalit soʻzlar: *maqol, paremiya, turk, turkiy, lingvistik, struktur, semantik.*

KIRISH

Inson dunyoni ijtimoiy-tarixiy, umuminsoniy, milliy tajribani oʻzida aks etgan til yordamida idrok etadi. U tarix, madaniyat, adabiyotga eʼtibori natijasi oʻlaroq tilga yaqinlashadi, yoki aksincha tili orqali milliy-mafkuraviy boylikka qiziqadi. Mazkur tarix, madaniyat, adabiyot, milliy mafkuraning aks-sadosi maqol va matallarda namoyon boʻladi. “Bular ajdodlar tomonidan kelajak uchun oʻziga xos yoʻllanma sifatida qoldirilgan, qisqa soʻz bilan ifodalangan, axloqiy qonun va sogʻlom fikrni oʻz ichiga olgan mikrotizimlarning bir turidir” [Маслова 1997]. Shu boisdan ham

¹ Kadirova Xurshida Batirovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti, Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc).

E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

² Uralova Odina Orifjanovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti, Oʻzbek tili va adabiyoti 1-bosqich magistranti.

E-mail: gayratbest@mail.uz

ORCID: 0009-0003-3702-6474

Iqtibos uchun: Kadirova, X. B., Uralova, O. O. 2025. “Turkiy va turk xalq maqollarining lingvistik tadqiqi”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari*. 1 (5): 59-74.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2025.1 (5)/FDKC1251

maqol va matallar tilda alohida mavqega ega bo'lib, ularni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganish o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

ASOSIY QISM

Har qanday tilning maqollari o'ziga xos xususiyatlarga ega – ularda xalqqa tegishli hamma narsa: turmush tarzi, afzalliklari, kundalik hayoti, butun bir xalqning, ba'zan hatto bir guruh xalqlarning milliy xarakterining in'ikosidir [Еропова 2014]. Turkiy xalqlarni birlashtirib turuvchi tarixiy, milliy-madaniy omillar o'zbek va turk xalqlari maqollarining mushtarak jihatlarini namoyon etadi. Xususan, Mahmud Qoshg'ariy "Divon lug'at at-turk" asarida arabzabon kitobxonlarni turkiy tillar bilan tanishtirishdan asosiy maqsadi bo'lganligi sababli turkiy lug'aviy materialga boshqa tillarda so'zlashuvchilar nigohi bilan qaragan [Абдуллаева 2024]ligi hamda u to'plagan 290 turkiy maqoldan ko'pchiligi u yoki bu shaklda hozirgi turkiy paremiyalar fondiga kiritilgan [Попухомовский 2014] ligi olimlar ttomonidan e'tirof etiladi. Mazkur turkiy maqollar boshqa tillarga keng tarqalgani, ular linvistik tadqiq etilgani ahamiyatli. Jumladan, "Qozoq va turkiy xalqlarning maqol va matallarida umumiy o'xshashliklar" [Алиева], "Qozoq maqollarining xususiyatlari va boshqa turkiy tillar maqollari bilan o'xshashliklari" [Sarsek 2021], "Mo'g'ul va turkiy tillarda qiyosiy munosabatlarni ifodalash shakllari tipologiyasi" [Мушаев 2018] ga bag'ishlangan ishlar turkiy maqollarning dunyo miqyosida tadqiqotchilar diqqat markazida ekanligidan dalolat beradi. Albatta, "turkiy tillar" deganda, tarixiy ildizlari yaqin bo'lgan qardosh tillar nazarda tutilib, unga barcha turkiy tillar kirishini e'tiborga olish joiz. Misol uchun, O.V.Barabash va R.Xamrayevalar rus maqol va matallarida turkiy so'zlarning kelib chiqishini tadqiq etib, XIX-XX asrlar rus tilshunosligida turkiy tillarning tasniflarini ishlab chiqilganligini va rus-turkiy tillararo aloqalar muammosining turli jihatlarini ko'rib chiqilganligini [Бабабаш 2025], aytishadi. Rus tili paremiologik fondida faoliyat yurituvchi turkiy leksemalarni shartli ravishda leksik-semantik guruhlariga ajratishganda o'zbek tiliga xos bo'lgan so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, *алтын, базар, колпак, чулок, штаны, алмаз, бирюза, изюм, утюг, чемодан, чугун, арбуз, камыш, башка, кадык, кулак* [Бабабаш 2025]. Hatto nemis grammatikasida ham turkcha maqollar aniqlangan bo'lib, "I. Megizer "Institutiones linguae turcicae libri quatuor" grammatikadagi turk maqollari (1612)" [Нуриева 2019] nomli maqola e'lon qilingan. Maqola Ieronymus Megiserning "Institutiones linguae Turcicae libri quator" (1612) grammatikasida aniqlangan maqollarga bag'ishlangan.

Amalga oshirilgan tahlillar turkiy va boshqa Yevropa tillarining ushbu paremiya fondida soʻzlashuvchilarning dunyoqarashi haqida maʼlumot beradi. Ana shunday maqollarning nutqimizdagi oʻrni beqiyos ekanligi, X asrdayoq maqollar Angliyada lotin tilini oʻrganish vositalaridan biri sifatida ishlatilganligi “Turk va ingliz tili maqol va matallarining oʻzaro uygʻunligi” [Кенжемуратова 2017] maqolasida ham qayd etiladi. Turkiy xalqlar va boshqa xalqlar oʻrtasidagi uzoq muddatli aloqalar bu xalqlar maqollarining mavzulari va badiiy, tasviriy vositalarida oʻxshashlikni keltirib chiqardi. Masalan,

A friend in court is better than a penny in purse – Влиятельный друг дороже денег (Не имей сто рублей, а имей сто друзей) – *Iyi dost paradan da kiymetli* (100 rubleye göre 100 dostun olsun);

A friend in need is a friend indeed – Истинный друг познается в беде – *Iyi dost kötü günde belli olur*;

A man is known by the company he keeps – Скажи мне, кто твой друг, и я скажу, кто ты – *Arkadaşının kim olduğunu söylersen ben de sana senin kim olduğunu söylerim*;

It is never too late to learn – Учиться никогда не поздно – *Okumak için hiç bir zaman geç olmaz*;

Jack of all trades and master of none – За все берущийся человек, но ничего не умеющий делать – *Her şeyi yapmak istiyor ama hiç bir şeyi yapamıyor*;

Live and learn – Век живи, век учись – *yüzyıl yaşa yüzyıl oku*;

Never put off till tomorrow what you can do today – Никогда не откладывай на завтра то, что можно сделать сегодня – *Bugün yapabileceğin işi yarına asla bırakma*;

No pain, no gain – Без труда не выловишь и рыбку из пруда – *Emeksiz balığı da sudan çıkaramazsın* [Кенжемуратова 2017].

Biroq ishimizning obyektini aynan turk tilidagi maqollar boʻlganligi uchun biz “turkiy til” emas, zamonaviy turk tili bilan bogʻliq masalalar, xususan turk maqollarining lingvistik xususiyatlari masalasidagi ishlarni tahlil qilishni oʻz olimizga maqsad qilib qoʻyamiz.

Turk tilidagi maqollar ham qiyosiy tilshunoslikning obyektini boʻlgan. “Turkvachuvasmaqollarining strukturasi va semantikasining qiyosiy-chogʻishtirma tahlili” [Павлов 2004], “Tatar va turk maqol va matallarida shaxs nomlari” [Биктагирова, Хазиева-Демирбаш 2012], “Turk va rus maqollarining chogʻishtirma tahlili” [Шенгюдер 2023] ga bagʻishlangan ishlar shular jumlasidan. Turk maqollarining oʻzbek maqollari bilan qiyosiy oʻrganilishi ham tadqiqotchilar eʼtiboridan chetda qolmagan. Xususan, oʻzbek-turk maqollarining

tasnifiga bag'ishlangan ishda "o'zbek va turk folklorida bir-birini so'zma so'z takrorlaydigan analogik tipdagi maqollar mavjudligi, sinonimik tipdagi maqollar ham ayni mazmun atrofida birlashishi, o'zaro muqobillaridan tarjima jarayonida to'g'ri foydalanish adekvat tarjimaga erishishda yordam berishi [Xojiyeva 2024], xulosa qilinadi. Tadqiqotchi boshqa bir maqolasida ikki tilning maqollari didaktik xarakterda bo'lishini aytadi. "Ularning har biri maxsus missiya – xalqning milliy tarbiyasi uchun xizmat qiladi" [Xojiyeva 2024] deya *Bulbul chamanni sevar, Odam – vatanni* maqolining zamonaviy turkcha vatiantini keltirib, maqollarning mushtarak vazifalarini bayon etadi: *Bülbülü altın kafese koymuşlar, "ah vatanım" demiş.*

O'zbek-turk maqollarining motivlaridagi uyg'unlik turk tadqiqotchilarining ham diqqat markazida. Jumladan, ota tushunchasini ifodalovchi o'zbek va turk xalq maqollarining qiyosiy tahlilini Ahmet Erdem "Sharq mash'ali" jurnalida e'lon qiladi. Turk va o'zbek maqollarida "ota" tushunchasi bilan bog'liq mavzular bir-biriga juda yaqin ekanligini xulosa qilgan [Ahmet Erdem 2022]. Lekin turkcha va ruscha maqollaridagi "oila" motivi chog'ishtirma tahlil qilinganda bunday uyg'unlikni ko'rmaymiz. "155 ta (81 rus va 74 turk) "oila" komponentli maqollarini solishtirish natijasida bu maqollarning umumiy va milliy-o'ziga xos xususiyatlari, semantikasidagi o'xshash va farqli tomonlari aniqlangan. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, to'rtta jadvalda taqdim etilgan:

1. Mazmun va shakl jihatdan bir-biriga mos keladigan maqollar;

2. Mazmuni bir-biriga mos keladigan va shakl jihatdan qisman mos keladigan maqollar;

3. Mazmuni bir-biriga mos kelsa-da, shakli mos kelmaydigan maqollar;

4. Turk tilida varianti bo'lmagan rus maqollari, rus tilida varianti bo'lmagan turk maqollari" [Senguder 2023]. Muqobili bo'lmagan maqollar turli tizimdagi tillarda ekanligi bilan belgilanadi. Zero,

Amca – baba yarısı.

Cennet annelerin ayakları altındadır.

Eken evlenen yanılmamış.

Elti eltiden kaçır, görümceler bayrak açar.

Gelinin dini yok, kaynananın imanı

Kardeşi olmayan garip olur.

Oğlan dayıya, kız halaya çeker.

Sen seversen yavrunu, o da sever yavrusunu.

singari maqollar rus tilining mental tabiati uchun begona bo'lgani kabi

В гостях хорошо, а дома лучше.

В семье и каша гуще.

Все равны детки – и пареньки и девки.

Зять да сват у тещи – первые гости.

Муж да жена – одна душа.

Муж да жена – одна сатана.

Родители берегут дочь до венца, а муж жену до конца.

У кого есть бабушка и дед, тот не ведает бед.

qabilidagi ruscha maqollar turkiy xalq xarakter xususiyatiga to'g'ri kelmasligi ma'lum.

Demak, o'zbek maqollari bilan turk maqollarining lingvokulturologik, semantik jihatdan mavzuviy guruhlar, qo'llanilish darajasi, xuddi o'zbek maqollaridek "milliy ta'limda maqollardan foydalanish" [Кенан Алтынкая 2023] kabi maqsad va vazifalari aynan deb ayta olishimiz mumkin. Lekin har bir tilning leksik-grammatik tafovutlari bo'lib, har tir tilda maqollarning individual xakteri tadqiq etilgan. Shu bilan bir qatorda "turk maqollari tarixida o'rta asrlar filologiyasining buyuk yodgorligi "Turkiy tillar devoni" muallifi Mahmud Qashg'ariy alohida o'rin tutishi" [Бикчинтаева 2019] qayd etiladi. Turk tilida ham barcha turkiy tillardagi kabi "elipsis hodisasi" [Мирзаалиев 2019], "tazod va alliteratsiyaning o'rni" [Мирзаалиев 2019] mavjudligi kuzatiladi.

Turk maqollarining tili, aynan grammatik va leksik aspektlari M.V.Parxamovskiyning ishida o'z aksini topgan. U tadqiqot davomida quyidagi xulosalarni bayon etadi: "1. Turkiy maqollarda hozirgi-kelasi zamon va buyruq fe'llarining qo'llanishi ko'p bo'lib, bu ularning pragmatik o'rinlari bilan izohlanadi, shart maylidagi fe'llar ishtirok etgan maqollar asosan axborot shaklida emas, balki qo'shimcha vaziyat, potentsial yoki irreal holat bilan izohlanadi. 2. Maqollardagi subyekt, obyekt va predikatning o'zaro birikuvida, yozma va og'zaki til xususiyatlari bilan belgilanadigan so'z tartibining turli xil variantlarini topish mumkin. 3. Turkiy so'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlari turk maqollariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Sintaktik o'rin almashinmasligi, takrorlar yordamida so'zlarni ajratib ko'rsatish, sintaktik o'rinni juftlab almashtirish va alohida gaplarning gap a'zosi sifatida ishlashida namoyon bo'ladi" [Порхомовский 2009] va h.

Olim 2014-yilda o'z izlanishlari natijasi sifatida "Til va nutqda turk maqollari" [Порхомовский 2014] nomli kitobini

nashr ettirdi. Mazkur kitobda rus va jahon turkologiyasida ilk bor turli davrlarda nashr etilgan turk maqollarining to'liq majmuasi – Mahmud Qoshg'ariyning “Turkiy tillar devoni”dan tortib, zamonaviy to'plamlargacha, jami 6 mingga yaqin hikmatlarning har tomonlama lingvistik tahlili berilgan. Ushbu tadqiqot morfologiya va sintaksis darajalarini qamrab olgan, shuningdek, matn lingvistikasining eng so'nggi ishlanmalaridan foydalangan. Alohida bobda turkiy maqollarning lug'aviy tarkibi tahliliga bag'ishlangan bo'lib, uning natijalari nafaqat turkolog va paremiologlar, balki an'anaviy madaniyat, dunyoning lingvistik manzarasi, etnolingvistika va boshqalarni ham o'ziga jalb qilgan.

Har bir tilda bo'lgani kabi o'zbek va turk tilidagi maqollar tadqiqi ham salmoqli o'rinni egallaydi. O'zbek tilida lingvistik jihatdan amalga oshirilgan ishlar qatorida B.M.Jo'rayevaning ishini ko'rsatish mumkin. U o'zining tadqiqot ishida o'zbek maqollarining hamma qirralarini qamrab olishga harakat qilgan. Yondosh hodaisalarga munosabati, o'zbek xalq maqollarining shakllanishida introlingvistik va ekstrolingvistik omillar va hayvon nomlarining shartlangan ma'nolari ishda o'z aksini topgan [Жўраева 20196]. Shuningdek, G.R.Komilova ham o'zbek maqollaridagi kontseptlarning aksiolingvistik tahlilini amalga oshirib, maqollarda aksiologik mazmunni ifodalovchi lingvistik birliklar misolida masaga oydinlik kiritadi [Комилова 2022].

Turk tilida Necmi Akyalchin yillar davomida maqol va iboralar (paremiologiya va frazeologiya) ustida ish olib borib, ikki jildli lug'at chop ettirib sohaga yangicha yondoshuv olib kirdi [Türkçemizincileri Atasözlerimiz 2012]. Bundan tashqari Necmi Akyalchin ilk bor maqol va iboralarini farqlashdagi muammolarni o'rta qo'ydi [Necmi Akyalçin 2011].

Turk tilida maqollar lug'atiga doir ishlar ko'lamli keng. Misol uchun, Nurettin Albayrak [Nurettin Albayrak 2009], Metin Yurtbaşı [Metin Yurtbaşı 1994], İsmail Parlatır [İsmail Parlatır 2008], Mehmet Hengirmen [Mehmet Hengirmen 2007], Ömer Asım Aksoy [Ömer Asım Aksoy 1988] kabi olimlar bu ishda bosh bo'lib o'z xizmatlarini ayamaganlar. Bundan tashqari Feridun Fazil Tülbentchining turkcha maqol va iboralar tahlil qilingan lug'ati mavjuddir [Feridun Fazıl Tülbentçi 1977]. Ushbu lug'atda 17440 ta maqol va iboralar mavjud.

O'zbek tilshunosligida esa o'zbek maqollarining semantik xususiyatiga oid izlanishlar ko'p uchraydi. Jumladan, “fitonimlar asosida shakllangan xalq maqollarining ma'naviy va uslubiy xususiyatlari” [Умарова 2016], “o'zbek maqollaring semantik

jihatlari xususida” [Раджабова, Кадуллаева 2023] kabi ishlarda o‘zbek xalq maqollari mazmunidagi ayrim obrazlar ifoda etgan semantik jihatlar haqida so‘z boradi.

Turk tilshunosligida maqollarning struktur jihatdan tadqiqi o‘zbek tilshunosligiga qaraganda aycha salmoqli. Bunda Aydin Ayning tadqiqi ham o‘z o‘rniga egadir. U maqollarning tuzilishini tahlil qilgan va 7 asosiy guruhga ajratgan [Aydin Oy 1972]. Bular:

1. Sodda gaplardan iborat qo‘shma gapli maqollar: *Bekar gözü ile kız alma, gece gözü ile bez alma;*

2. Birinchi qismidagi fe‘l tushib qolgan maqollar: *Abdal tekkende, hacı Mekke’de bulunur;*

3. Ikkinchi qismidagi fe‘l tushib qolgan maqollar: *Açın amfım olmaz, tokun imanı;*

4. Bir qismi bo‘lishli, bir qismi bo‘lishsiz fe‘l ko‘rinishidagi maqollar: *Acıyan uyumuş, acıkan uyumanuş;*

5. Birinchi qismidagi fikrni keyingi qismda izohlanadigan maqollar: *Aç ile arkadaş olma, yemem der de.sömürür;*

6. Boshqa-boshqa ma‘no anglatuvchi gaplardan tuzilgan maqollar: *Aç koyma hırsız edersin, çok söyleme arsız edersin;*

7. So‘roq gap shaklidagi maqollar: *Buğday ekmeğin yoksa buğday dilin de mi yok?*

Mustafa Altun esa ushbu tasnifdan qoniqmaydi va u qayta tasniflashga harakat qilgan [Mustafa Altun 2004]. U maqollarga misollarni Metin Yurtbashining “Sınıflandırılmış Türk Atasözleri” kitobidan olgan [MetinYurtbaşı 1994]. Jumlalarni tuzilishiga ko‘ra tasniflashda, 1997-1998-yili prof. Muhammet Yelten tomonidan amalga oshirilgan “Turk tilidagi jumla turlari” nomli doktorlik ishidan ilhomlanib, grammatik nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan.

Maqollarning tuzulishi ko‘ra tasnif Adiyaman universiteti Ijtimoiy fanlar, turk tili va adabiyoti instituti tadqiqotchisi Mehmet Emin Tug‘lukning “Atasözlerinde Cümle türleri” maqolasida ham uchraydi [Mehmet Emin 2018]. Ushbu maqolada maqollar bir necha turlarga ajratilgan. Masalan, sodda gapli maqollar, qo‘shma gapli maqollar, murakkab jumla maqollar, shart munosabati asosiga qurilgan qo‘shma gapli maqollar kabi turlarga ajratilgan va ularga misollar berib izohlangan.

Shuningdek, Kocaeli universiteti, san‘at va fanlar fakulteti, turk tili va adabiyoti professori Kenan Ajar ham maqollarning tuzulishi, ulardagi urg‘u borasida ish olib boradi [Kenan Ajar 2024]. Ushbu tadqiqotda maqollardagi har bir so‘zga alohida e‘tibor berilib, qaysi so‘z turkumiga urg‘u tushishini o‘rganib chiqqan. Tadqiqot

uchun olingan maqollarning ko'pchiligida sifatlarga urg'u tushishi ko'rsatilgan (Çalışmada incelenen 1010 atasözünden cümle vurgusu belirgin 331 atasözünün büyük çoğunluğu oluşturan 259'u sıfat vurguludur) [Kenan Ajar 2024].

O'zbek tilshunosligida maqollar chog'ishtirma aspektida o'rganishsi ancha taraqqiy etganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, "Graduonim komponentli o'zbek xalq maqollari va ularning ingliz tilidagi muqobillari" [Джумабаева 2017], "Hikmat arboblarning turli tildagi muloqot odobini ifodalovchi maqollar haqidagi fikrlari (o'zbek va koreys tillari misolida)" [Баёнханова 2022], "O'zbek va ingliz maqollarida «vatan» va «rodina» kontseptining ifodalanishi" [Файзиева 2023] nomli maqolalar bunga dalildir. Bunday vhog'ishtirma tahlil turk tilshunosligida ham uchraydi. Masalan, Gülden Tüm adabiyot, falsafa, san'at, madaniyat, til, urf-odat va an'analar millatlararo ijtimoiy tafakkurni birlashtirish, yaqinlashtirish uchun katta hissa qo'shishini aytib, bunga faqat til erisha olish mumkinligini ta'kidlaydi. U turk tilidagi maqollarni boshqa tildagi variantlari bilan qiyoslab beradi.

Bilmemek ayıp değil, sormamak ayıp.

Nemis tilida: *Fragen ist keine Schande.* (Sormak ayıp degildir)

Cheh tilida: *Líná huba, holý neštěstí.* (Tembel ağız acı bir durumdur/derttir.)

Gollandiya tilida: *Domme vragen bestaan niet.* (Aptal sorular yoktur.)

Polsha tilida: *Kto pyta, nie błądzi.* (Birisi soru sorduğunda yanılgiya düğmez.)

Litva tilida: *Nežinoti – ne gėda, gėda – neklausti.* (Türkçesiyle aynı)

Venger tilida: *Jobb kétszer kérdezni, mint egyszer hibázni.* (Bir defa hata yapmaktansa iki defa sormak daha iyidir.)

Slovak tilida: *Nie je hanba sa opýtať, ale hanba je sa neopýtať.* (Türkçesiyle aynı) [Gülden Tüm 2010]. Ushbu shaklda maqollarning boshqa tillardagi muqobili orqali o'sha tilni o'rganish yanada oson bo'lishini aytadi.

Semantik jihatdan tahlil etilgan ishlar turktilshunosligida ham yo'q emas. Umuman grammatika ta'limida maqollarni namunaviy matn sifatida qo'llashni ko'rsatgan olim sifatida Keziban Tekshanni aytish mumkin. U maqollar asosida grammatikani o'rgatish samarali ekanligini aytadi. Bu usulda o'quvchilar ham tilni, ham maqollarni, ya'ni madaniyatni o'rganishlari mumkinligi qayd etiladi [Keziban Tekshan 2012]. Maqollardagi har bir harflarga to'xtalinadi, J harfi

bilan boshlanadigan maqollar yo'qligini aytib o'tiladi. Maqollarda qo'llangan kasb nomlari (Demircinin canı demirden berk gerek), hayvon nomlarining qo'llanishi (Ata eyer gerek, eyere er gerek), qarindosh nomlari (Bağ babadan, zeytin dededen kalmalı), mavhum otlarning ko'pab qo'llanishi, sifat so'z turkumining ishlatilishi, fe'ning maqollarda qanday shakllarda kelishi kabilarni alohida tavsiflangan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turkiy maqollarning o'rganilishi qiyosiy, chog'ishtirma tilshunoslik obyekti sifatida qaralib, asosan turk tilidan boshqa tillar bilan hamohang tadqiq etilishga moyil. Chuqur madaniy, ta'limiy, axloqiy mazmunga ega turkiy xalq maqollari garb maqollarida o'z izini qoldirganligi bilan ahamiyatli. Turk maqollari esa turk tilshunosligida grammatik va sintaktik shakllanishi va nutqda turli tipda ifodalanishiga doir ishlarining predmeti bo'lib xizmat qiladi. Shu yondashuv turk maqollarining o'zbek maqollari bilan qiyoslanishi uchun katta baza vazifasini o'taydi. Zero, struktur jihatdan o'xshash tillarning muayyan birliklariaro tilshunoslikning boshqa yo'nalishlarini tadqid etish uchun zamin yaratiladi.

Adabiyotlar

- Ahmet, Erdem.* 2022. Ota tushunchasi ifodalovchi o'zbek va turk xalq maqollarining qiyosi // OT. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ota-tushunchasi-ifodalovchi-o-zbek-va-turk-xalq-maqollarining-qiyosi>
- Aydın, Oy.* 1972. Tarih Boyunca Türk Atasözleri, İş Bankası Yayınları, İstanbul, s.91-96
- Feridun, Fazıl, Tülbentçi.* 1977. Türk Atasözleri ve Deyimleri, İstanbul, 2. bsl., 581 s., İnkılâp ve Aka Kitabevleri.
- Gül den, Tüm.* 2010. Atasözlerinin değişik kültür ve dilleri anlamaki rolü, International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 5/4 Fall. <https://arch.kyrlibnet.kg/uploads/KNUALIEVAS.A.,MAKHAMBETOVAS.K.2022-4.pdf>
- İsmail, Parlatır.* 2008. Atasözleri. Ankara, 574 s., Yargı Yayınları. [5.076 söz]
- Kenan, Ajar.* 2024. Türkiye türkçesi atasözlerinde cümle vurgusu, ÜRÜK Uluslararası Dil, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi TURUK International Language, Literature and Folklore Researches Journal Geliş Tarihi /Date of Received: 31.07.2024 Kabul Tarihi / Date of Accepted: 11.09.2024 Sayfa /Page: 1-13.
- Keziban, Tekshan.* 2012. Atasözlerinin dil bilgisi öğreteminde

- kullanilabilirliği, Tübar, XXXI.
- Mehmet, Emin, Tug'luk.* 2018. Atasözlerinde Cümle türleri, Mecmua uluslararası sosyal bilimler dergisi.
- Mehmet, Hengirmen.* 2007. Atasözleri Sözlüğü. Ankara, 608 s. Engin Yayınları, [3.896 söz]
- Metin, Yurtbaşı.* 1994. Sınıflandırılmış Türk Atasözleri, Ankara, 311 s. Özdemir Yayınları. [Azerbaycan, Kırım, Balkanlar dâhil 10.000 söz, tekrarlar var.]
- Mustafa, Altun.* 2004. Türk Atasözleri Üzerine sentaktik bir inceleme, Akademik Araştırmalar Dergisi.
- Мирзаалиев, И.М.* 2019. Қадимги туркий мақолларда тазод ва аллитерациянинг ўрни // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал. № 6. 212-222 бетлар. URL: <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2020/02/turkiy-maqolalar.pdf>
- Necmi, Akyalçın.* 2011. Türkçe Deyimler Sözlüklerine Alınmış Deyim Olmayan Kimi Söz Öbeklerine İlişkin Bir Değerlendirme. Folklor / Edebiyat, C. 17, S: 68, , s. 121-142.
- Nurettin, Albayrak.* 2009. Türkiye Türkçesinde Atasözleri. İstanbul, 1140 s. Kapı Yayınları [18.838 söz].
- Ömer, Asım, Aksoy.* 1988. Atasözleri Sözlüğü, İstanbul, 457 s. İnkılâp Kitabevi. [2.305 söz]
- Sarsek, N.* 2021. Особенности казахских пословиц и их сходство с пословицами других тюркских языков. *Keruen*, 73 (4). <https://keruenjournal.kz/main/article/view/100>
- Senguder, Z.* 2023. A Comparative Analysis of Russian and Turkish Proverbs Involving the Concept of Family. *Avrasya İncelemeleri Dergisi - Journal of Eurasian Inquiries* 12, 1: 51-68. <https://doi.org/10.26650/jes.2023.003>
- Türkçemizin İncileri Atasözlerimiz / Tanıklı Sözlük. Ankara 2012, 783 s., Eğiten Kitap Yayınları, Türkçemizin Anlamsal Zenginlikleri Deyimlerimiz, Ankara 2012, 672 s., Eğiten Kitap Yayınları.
- Xojiyeva, O.* 2024. O'zbek-turk maqollarining klassifikatsiyasi // XI Beynəlxalq Türk Dünyası Araştırmaları Simpoziumu, 11-13 İyun, / Bakı. 617-625 b. – 625-b.
- Xojiyeva, O.Sh.* 2024. Milliy tarbiyada turkiy xalqlar maqollarining tutgan o'rne (o'zbek va turk maqollari misolida) // “Yangi O'zbekistonda o'zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani: 2024-yil, 21-oktabr. 108–111-betlar. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0051/51_i_20241017_124446_3.6.pdf
- Абдуллаева, Н.* 2024. Пословицы, поговорки, образные выражения и их отличия. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(3), 206–213. <https://inlibrary.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/67561>
- Алиева, С.А., Махамбетова С.К.* Общие сходства в пословицах и поговорках народов казахского и тюркского

происхождения.

- Баёнханова, И. Ф. 2022. Ҳикмат арбобларининг турли тилдаги мулоқот одобини ифодаловчи мақоллар ҳақидаги фикрлари (ўзбек ва корейс тиллари мисолида). "Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya. June 2022. – В. 555-566. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6653780>
- Барабаш, О. В., Хемраева Р. 2023. Лексика тюркского происхождения в русских пословицах и поговорках // Вестник ПензГУ. №3 (43): С. 22–28. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/leksika-tyurkskogo-proishozhdeniya-v-russkih-poslovitsah-i-pogovorkah>
- Биктагирова, З.А., Хазиева-Демирбаш, Г.С. 2012. Личные имена в татарских и турецких пословицах и поговорках // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В.И.Вернадского. №2(40). -С.271–274.
- Бикчинтаева, Н. С. 2019. Отражение культуры турецкого народа в пословицах и поговорках / Н. С. Бикчинтаева // Via Scientiarum - Дорога знаний. – № 1. – С. 99-104. – EDN ZDSFLF. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37340671>
- Джумабаева, Ж.Ш., Абдуллаева, Н.Э. 2017. Градуоним компонентли ўзбек халқ мақоллари ва уларнинг инглиз тилидаги муқобиллари // Хорижий филология. №4. – Б. 30-33.
- Егорова, Э.В., Крашенинникова Н.А. 2014. Пословицы и поговорки как объект изучения в лингвистике // Поволжский педагогический поиск. Филология. № 1 (7), С.106–108.
- Жўраева, Б.М. 2019. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. 10.00.01 – Ўзбек тили Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 74 б.
- Кенан, Алтынкая. 2023. Использование пословиц в турецкой национальной образовании // International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia Jan 24th Pg.11-20.
- Кенжемуратова, С. А., Абилкасым, М. А. 2017. Взаимосвязь пословиц и поговорок турецкого языка с английским языком // Неофилология. №2 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimosvyaz-poslovits-i-pogovorok-turetskogo-yazyka-s-angliyskim-yazykom>
- Комилова, Г. Р. 2022. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Тошкент, 50 б.
- Маслова, В.А. 1997. Введение в лингвокультурологию. – М.: Наследие. – 206 с.
- Мирзаалиев, И. М. 2019. Қадимги туркий мақолларда эллипсис ҳодисаси («Девону луғати-т-турк» асаридаги мақоллар мисолида) /И.М.Мирзаалиев. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — № 28 (266). — С. 285-287. — URL:

- <https://moluch.ru/archive/266/61599/>
- Мушаев, В.Н., Абдуллаев, С.Н. Типология форм выражения сравнительных отношений в монгольских и тюркских языках. *Oriental Studies*. 2018; 11(6): 130–139. URL: <https://doi.org/10.22162/2619-0990-2018-40-6-129-138>
- Нуриева, Ф. Ш., Петрова, М. М., Сунгатуллина, М. М. 2019. Тюркские пословицы в грамматике И. Мегизера "Institutiones linguae turcicae libri quatuor" (1612) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, Том 12. Выпуск 9. С. 372-378.
- Павлов, В.В. 2004. Сравнительно-сопоставительный анализ структуры и семантики турецких и чувашских пословиц. Автореф. дисс.кан.фил.наук. – Чебоксары, 28 стр.
- Порхомовский М. В. 2014. Турецкие пословицы в языке и речи / М. В. Порхомовский. — М.: Языки славянской культуры, С.5. — 176 с.
- Порхомовский, М.В. 2009. Язык турецких пословиц (грамматический и лексический аспекты). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Москва. 30 с.
- Раджабова, М.А., Кадуллаева, З.А. 2023. Ўзбек мақолларинг семантик жиҳатлари хусусида. Журнал универсальных научных исследований, 1 (6), 515–521. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8036631>
- Умарова, Н.Р., Турдилиева, Д.С. Фитонимлар асосида тузилган ўзбек халқ мақолларининг семантик ва стилистик хусусиятлари // Ученый XXI века. 2016. № 7 (20). – С. 47-50.
- Файзиева, А. Х. 2023. Ўзбек ва инглиз мақолларида «ватан» ва «родина» концептининг ифодаланиши. ЗОЛОТОЙ МОЗГ, 1 (11), 21–31. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3120>
- Шенгюдер, З. 2023. Сопоставительный анализ турецких и русских пословиц с компонентом 'семья'. Аврася Инчелемелери Дергиси 12, корп. 1 (март 2023 г.): 51–68. <https://doi.org/10.26650/jes.2023.003>.

LINGUISTIC STUDY OF TURKISH AND TURKIC FOLK PROVERBS

Kadirova Khurshida¹

Uralova Odina²

Abstract

The paremiological basis of language is the oral experience of people's knowledge of the world. In the process of linguistic research, its national-mental features, grammatical and syntactic differences and commonalities are revealed. The article analyzes the distinctive features and approaches to the study of Turkish and Turkic proverbs. The article is based on analytical, descriptive and classificatory methods. Sources related to the linguistic study of proverbs were studied, and as a result of the study, it was concluded that Turkish proverbs should be studied in linguistics from a comparative point of view, and Turkic proverbs should be studied on the basis of a lexical, semantic, grammatical and syntactic approach.

Keywords: *proverb, paremia, Turkish, Turkic, linguistic, structural, semantic.*

References

- Ahmet, Erdem. 2022. Ota tushunchasi ifodalovchi o'zbek va turk xalq maqollarining qiyosi // OT. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ota-tushunchasi-ifodalovchi-o-zbek-va-turk-xalq-maqollarining-qiyosi>
- Aydın, Oy. 1972. Tarih Boyunca Türk Atasözleri, İş Bankası Yayınları, İstanbul, s.91-96
- Feridun, Fazıl, Tülbentçi. 1977. Türk Atasözleri ve Deyimleri, İstanbul, 2. bsl., 581 s., İnkılâp ve Aka Kitabevleri.
- Gülden, Tü. 2010. Atasözlerinin değişik kültür ve dilleri anlamaki rolü, International Periodical For the Languages, Literature and

